



ELEKTRON TIJORATNI SOLIQA TORTISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

PROSPECTS FOR IMPROVING MECHANISMS OF TAXATION OF ELECTRONIC COMMERCE

**¹Daminov Otabek
O'tkir o'g'li**

*¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi «O'zbekiston
iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari»
ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Maqolada elektron savdo sohasida soliq siyosatini takomillashtirish imkoniyatlari va asosiy muammolar tahlil qilingan. Elektron savdo tez rivojlanayotgani, ammo uni soliqqa tortishdagi normativ-huquqiy bazaning yetishmasligi, soliq tushumlarining noaniqligi va texnologiyalardan samarali foydalanishning muammolari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, elektron savdo uchun mos soliq mexanizmlarini joriy etish orqali davlat budjetiga tushumlarni oshirish va bozorni tartibga solish istiqbollari yoritilgan.

Eng. - The article analyzes the opportunities and main challenges in improving tax policy in the e-commerce sector. It discusses the rapid growth of e-commerce and the shortcomings of the regulatory framework in taxation, the uncertainty of tax revenues, and issues in effectively using technologies. The prospects of implementing appropriate tax mechanisms to increase state budget revenues and regulate the market are also highlighted.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ elektron savdo, soliq siyosati, soliqqa tortish mexanizmlari, raqamli iqtisodiyot, soliq muammolari, soliq tushumlari.
❖ e-commerce, tax policy, taxation mechanisms, digital economy, tax challenges, tax revenues.

Kirish.

Hozirgi zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar va internet tarmog'ining kengayishi har bir sohani, jumladan savdo faoliyatini ham mutlaqo yangicha bosqichga olib chiqmoqda. Elektron savdo (e-commerce) bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng tez o'sib borayotgan segmentlaridan biri bo'lib, uning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Xususan, pandemiya davrida onlayn savdoning rolining oshishi va raqamli platforma orqali tovarlar hamda xizmatlar sotishning kengayishi elektron savdoning strategik ahamiyatini yanada oshirdi.

Elektron savdo davlatlar uchun yangi imkoniyatlar, shu jumladan iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va investitsiyalar jalb qilish nuqtai nazaridan muhimdir. Biroq, ushbu sohada soliq siyosatining samarali tartibga solinmasligi mamlakat budjetlari uchun xavf tug'dirishi mumkin. Elektron savdo mahsulotlari va xizmatlari tranzaksiyalarining global xarakterga ega bo'lishi soliq to'lovni aniqlash, nazorat qilish va yig'ishni murakkablashtiradi. Bu esa davlatlar oldida yangi muammolar va tahdidlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Shu sababli, elektron savdo sohasida soliq siyosatini takomillashtirish masalalari xalqaro hamjamiyatda va milliy darajada dolzarb

mavzulardan biriga aylanmoqda. Samarali soliq tizimlari elektron savdo faoliyatini rag'batlantirib, adolatli raqobat muhitini yaratishi, shu bilan birga budjetga soliq tushumlarini oshirishi mumkin. Ammo bu jarayonda turli qiyinchiliklar, jumladan texnologik cheklovlar, qonunchilikdagi nomuayyanliklar va xalqaro hamkorlikdagi muammolar ham uchraydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

OECD tomonidan tayyorlangan hisobotlarda elektron savdo sohasidagi soliq siyosati va raqamlashtirishning soliqqa ta'siri keng o'rganilgan. Ularda global darajadagi soliq muammolari, jumladan, elektron savdoga soliq solishdagi chegaralar va ikki tomonlama kelishuvlarning ahamiyati ta'kidlangan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotdagi soliq adolatini ta'minlash uchun yangi mexanizmlar taklif etilgan [1, 2].

BMTning raqamli iqtisodiyot bo'yicha hisobotida elektron savdoning o'sishi va uni soliqqa tortishdagi qiyinchiliklar, shu jumladan, transchegaraviy ma'lumot oqimlarining ta'siri tahlil qilingan. Ushbu manba raqamli savdo sohasidagi soliq siyosatiga jahon miqyosidagi yondashuvlarni taqdim etadi [3].

M.V. Mironovning ilmiy ishida Rossiyaning elektron savdo va soliqqa tortish sohasidagi huquqiy muammolari va bo'shliqlari ko'rib chiqilgan. Muallif soliq qonunchiligini takomillashtirish va raqamli savdoga moslashtirishning zarurligini ta'kidlaydi [5].

I.F. Nasibov va B.C. Ковалчукning tadqiqotlari elektron savdo sohasida soliq ma'muriyati va raqamlashtirish jarayonlarini o'rganib, soliq tushumlarini oshirishga qaratilgan strategiyalarni muhokama qilgan. Ular davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozimligini ta'kidlaydi [6, 7].

O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarida elektron savdo sohasida soliq siyosatini takomillashtirish masalalariga

bag'ishlangan maqolalarda mahalliy shart-sharoitlar, qonunchilik bazasi va raqamli infratuzilma holati tahlil qilingan [8, 9].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, tahlil, sintez kabi usullar samarali qo'llanildi, shuningdek elektron savdoni soliqqa tortish amaliyotini rivojlantirish hamda takomillashtirish, sohadagi muammolar va ularning yechimlari borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Elektron savdo – bu internet va raqamli platforma orqali tovarlar va xizmatlarni sotish va sotib olish jarayonini tashkil etuvchi iqtisodiy faoliyatdir. Uning rivojlanishi global raqamli transformatsiyaning muhim qismidir va dunyodagi savdo jarayonlarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Bugungi kunda elektron savdo ham kichik va o'rta bizneslar, ham yirik korxonalar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda, shu bilan birga iste'molchilarga keng tanlov, qulaylik va tezkorlikni taklif etmoqda.

Soliq siyosati esa davlatning iqtisodiy siyosatining muhim qismidir va uning maqsadi soliq tushumlarini maksimallashtirish, adolatli soliq yuklamasini ta'minlash hamda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashdir. Elektron savdo sohasi tez rivojlanishi bilan bog'liq ravishda soliq to'lash va nazorat qilish jarayonlarida yangi muammolar yuzaga kelmoqda. Masalan, elektron savdo orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar ko'pincha transchegaraviy xususiyatga ega bo'lib, bu soliqlashtirish jarayonini murakkablashtiradi.

Shu sababli, elektron savdo sohasida samarali soliq siyosati yaratish uchun maxsus yondashuvlar talab etiladi. Davlatlar raqamli savdo jarayonlarini nazorat qilish, soliq bazasini aniqlash va to'g'ri soliq stavkalarini belgilash uchun yangi qonunchilik, texnik va iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqmoqdalar. Buning ichida elektron platforma operatorlari,

onlayn to'lov tizimlari va xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, elektron savdo va soliq siyosati o'zaro bog'liq sohalar bo'lib, ularning muvofiqlashtirilgan rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, budjet daromadlarini ko'paytirish va biznes muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, soliq siyosatidagi noto'g'ri yondashuvlar yoki yetarli darajada muvofiqlashtirilmagan qonunchilik elektron savdo rivojiga to'siq bo'lishi mumkin.

Elektron savdoni soliqqa tortish – raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat budjeti barqarorligini ta'minlash, soliq adolatini tiklash va bozorda raqobat muhitini barqaror saqlashning muhim vositasidir. An'anaviy iqtisodiyotdan farqli ravishda, elektron savdoda tovar va xizmatlar virtual muhitda sotiladi va aksariyat hollarda chegaralarsiz amalga oshiriladi. Bu esa soliq to'lovchilarni aniqlash, daromad manbaini belgilash va soliq yuklamasini hisoblashda qator murakkabliklar tug'diradi.

Soliqqa tortishda qo'llaniladigan asosiy mexanizmlar qo'yidagilardan iboratdir:

Birinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS / VAT) mexanizmlari. Ko'plab davlatlar elektron xizmatlar va raqamli tovarlar uchun QQS qo'llashni yo'lga qo'yimoqda. Masalan, Yevroittifoq davlatlarida "VAT MOSS" (Mini One Stop Shop) tizimi joriy etilgan bo'lib, u xorijiy elektron xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarga yagona platformadan turib, QQS to'lash imkonini beradi. Bu orqali milliy QQS bazasi kengaytiriladi.

Ikkinchidan, soliq agentlari orqali to'lov. Ba'zi davlatlar elektron platforma operatorlarini soliq agentlari sifatida belgilanib, ular orqali tranzaksiyalarni to'g'ridan to'g'ri deklaratsiya qilish va soliqlarni undirishni yo'lga qo'ygan. Masalan, Indoneziya, Xitoy va Hindistonda e-tijorat platformalari sotuvchilardan QQS to'lab berish majburiyatiga ega.

Uchinchidan, chegara orqali soliq (destination-based taxation). Xalqaro elektron savdoda foydalanuvchi joylashgan davlatga ko'ra soliq yuklamasi belgilanadi. Ya'ni, tovar yoki xizmat qaerga yetkazilsa, shu davlatda soliq to'lanadi. Bu model OECD tavsiyalariga mos keladi.

To'rtinchidan, reestratsiya va raqamli ID talablari. Ko'plab davlatlar elektron xizmat ko'rsatuvchi xorijiy kompaniyalardan soliq organlarida ro'yxatdan o'tishni talab qilmoqda. Masalan, Rossiyada "Google nalog" ini joriy etib, Apple, Netflix, Spotify kabi kompaniyalarni MDHda soliq to'lovchi sifatida tan oldi.

Beshinchidan, maxsus raqamli to'lov monitoringi va API integratsiyalari. Ba'zi mamlakatlar elektron to'lov platformalari bilan onlayn ma'lumot almashishni joriy qilgan. Masalan, Buyuk Britaniyada HMRC (soliq xizmati) raqamli hisobot tizimini to'liq avtomatlashtirishga o'tgan.

So'nggi yillarda elektron savdo global iqtisodiyotda muhim rol o'ynay boshladi. Elektron tijorat orqali mahsulot va xizmatlarni real vaqtda sotib olish, chegaralardan mustaqil ravishda savdo qilish imkoniyati yuzaga keldi. Biroq ushbu rivojlanish davlatlar uchun yangi soliqqa tortish muammolarini keltirib chiqardi. An'anaviy iqtisodiyotga mos keluvchi soliq mexanizmlari virtual muhitda samarali ishlamaydi. Bu esa qonuniy soliq yig'imlarining kamayishi, tengsiz raqobat va "ko'rinmas iqtisodiyot"ning kengayishiga olib keladi.

Avvalo, elektron savdoning asosiy muammosi – soliq yurisdiksiyasini aniqlashdagi murakkablikdir. Ya'ni, tovar yoki xizmat qaysi davlatda ko'rsatildi, foydalanuvchi qaerda joylashgan, soliq to'lovchi kim – bu kabi masalalarni aniqlash juda qiyin. Bunday sharoitda transchegaraviy savdo amaliyotlari ko'pincha soliqdan chetda qoladi.

Ikkinchidan, elektron tijoratda soliqdan qochish va yashirin daromad olish holatlari tez-tez uchrab turibdi. Onlayn platformalarda ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yurituvchi

shaxslar, QR-kod va kriptovalyuta orqali to'lov qabul qiluvchi tadbirkorlar daromadlarini yashirishga harakat qilishmoqda. Masalan, Xitoyda 2022-yilda 1,3 milliondan ortiq onlayn sotuvchi rasmiy ro'yxatdan o'tmagan holda ish yuritgani aniqlangan.

Yana bir muammo – xalqaro qonunchilikning nomutanosibligidir. Elektron savdoning chegara bilmas xususiyati tufayli har bir davlatda turlicha soliq qoidalari amalda bo'lishi soliq majburiyatlarini tushunishni yanada qiyinlashtiradi. Masalan, Yevropa Ittifoqida elektron xizmatlar uchun yagona QQS bazasi mavjud bo'lsa, AQShda bu masala har bir shtat darajasida alohida tartibga solinadi.

Shuningdek, elektron platforma operatorlarining ma'lumot taqdim etish borasidagi cheklangan imkoniyatlari ham jiddiy to'siq hisoblanadi. Ko'plab onlayn savdo platformalari (Amazon, AliExpress, eBay va boshqalar) milliy soliq organlari bilan to'liq axborot almashinmasligi sababli, faoliyat yurituvchi onlayn sotuvchilar haqida yetarli ma'lumot olish qiyinlashadi. Natijada, soliq qonuni ijrosini ta'minlashda samaradorlik pasayadi.

Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlarda texnik infratuzilmaning yetishmasligi ham elektron savdoni nazorat qilishda to'siq bo'lmoqda. Onlayn kassa, avtomatlashtirilgan hisobot va API tizimlari faol tatbiq etilmagan. O'zbekistonda ham onlayn kassalar majburiy joriy etilgan bo'lsa-da, ulardan foydalanish darajasi hanz to'liq emas.

Shuningdek, aholining soliq madaniyati past bo'lishi, elektron daromadlarni rasmiylashtirmaslikka moyillik, hamda soliq organlari xodimlarining raqamli texnologiyalar bilan ishlash borasidagi malakasi yetarli emasligi masalaga yanada murakkablik qo'shadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, elektron savdoni soliqqa tortishda muammolar

kompleks tusga ega. Ularning yechimi huquqiy bazani modernizatsiya qilish, texnik infratuzilmani takomillashtirish, xalqaro muvofiqlashuvni kuchaytirish va eng muhimi, soliq to'lash madaniyatini shakllantirishni talab etadi. Soliq tizimining raqamli iqtisodiyotga moslashuvchanligi mamlakatning moliyaviy barqarorligi va adolatli bozor muhiti uchun asosiy omildir

Xulosa va takliflar.

Elektron savdo – zamonaviy iqtisodiyotning tez sur'atlarda rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, u raqamli texnologiyalar orqali tovar va xizmatlar ayirboshlashni yengillashtirib, yangi bozorlar va faoliyat modellarini yaratadi. Bu sohaning o'sishi davlatlar uchun ham katta imkoniyat, ham jiddiy chaqiriqlardir. Xususan, an'anaviy soliqqa tortish mexanizmlari elektron muhitda samarasiz bo'lib qolmoqda. Shu bois, elektron tijoratni soliqqa tortish sohasidagi siyosatni isloh qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Taxlillar shundan dalolat beradiki, soliq siyosatida raqamli platformalarni qamrab oluvchi avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarini joriy etish, elektron tijorat platformalarini soliq agenti sifatida faol jalb etish, mikrobiznes uchun soddalashtirilgan rejimlar yaratish va xalqaro ma'lumot almashinuvini kuchaytirish kabi mexanizmlar bu sohada katta samara beradi. Shu bilan birga, aholi va tadbirkorlar o'rtasida soliq madaniyatini oshirish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish – barqaror soliq siyosati uchun muhim poydevor hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, elektron savdo sohasida samarali soliq siyosatini shakllantirish, davlat budjeti barqarorligi va shaffof iqtisodiy muhit yaratish bilan birga, mamlakatning raqamli transformatsiya jarayonidagi muvaffaqiyatini ham belgilab beradi. Bu jarayonda milliy qonunchilikning global tendensiyalar bilan uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. *Tax Challenges Arising from Digitalisation – Report on Pillar Two Blueprint*. Paris, 2021. 220 p.
2. OECD. *Addressing the Tax Challenges of the Digitalisation of the Economy*. Paris, 2019. 160 p.
3. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). *Digital Economy Report 2021*. Geneva, 2021. 120 p.
4. Миронов М.В. Правовое регулирование налогообложения электронной торговли в России // Вестник Московского университета. Серия 11. Право. 2020. №2. С. 45–56.
5. Насибов И.Ф., Ковальчук В.С. Цифровая трансформация налогового администрирования в электронной торговле // Налоговая политика. 2022. №4. С. 67–75.
6. Ахмедов Ш.А. Перспективы совершенствования налоговой политики в сфере электронной торговли Узбекистана // Журнал экономики и права. 2023. Т. 12, №1. С. 101–110.
7. Абдуллаев Б.С. Электронная торговля и налоговое регулирование в странах Центральной Азии // Международный экономический журнал. 2022. №3. С. 112–120.
8. Козлов М., Петрова Е. Механизмы зеленого страхования и их эффективность в Казахстане // Журнал финансов и экологических исследований. 2023. №2. Ст. 34–42.
9. Иванов В.И. Зеленое страхование и принципы ESG в России // Журнал «Экологическое финансирование и страхование». 2022. Т. 5, №1. Ст. 15–27.